NOSTATSIONAR SAVDO OBYEKTLARINI SHAHAR BO‘YLAB JOYLASHTIRISH TAMOYILLARI VA URBANISTIK TAHLIL ASOSLARI

Obidjonova Sarvinoz odiljon qizi
Toshkent Arxitektura-Qurilish universiteti
Magistrant

Qabul qilindi: 29.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 30.10.2025
Tasdiqlandi: 31.10.2025

Kalit so‘zlar:
nostatsionar obyekt, joylashtirish tizimi, shahar muhitida integratsiya, urbanistik tahlil, ekologik dizayn, modulli arxitektura.

Ключевые слова:
нестационарный объект, система размещения, интеграция в городскую среду, урбанистический анализ, экологический дизайн, модульная архитектура.

Keywords:
non-stationary facility, placement system, urban integration, urban analysis, ecological design, modular architecture.

Annotatsiya: Mazkur tezisda nostatsionar (vaqtinchalik) savdo obyektlarini shahar bo‘ylab joylashtirishning asosiy tamoyillari, urbanistik tahlil bosqichlari hamda ekologik-estetik mezonlari yoritilgan. Hozirgi urbanizatsiya jarayonida savdo pavilonlari, kiosklar va mobil pavilionlar iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, shahar landshaftining ajralmas elementi sifatida ko‘rilmoqda. Shu sababli ularni joylashtirishda arxitektura-rejalashtirish, transport-logistika, ijtimoiy qulaylik va ekologik uyg‘unlik omillari kompleks tarzda hisobga olinishi zarur.

Аннотация:В данной тезисной работе раскрыты основные принципы размещения нестационарных (временных) торговых объектов по городу, этапы урбанистического анализа, а также экологические и эстетические критерии. В условиях современной урбанизации торговые павильоны, киоски и мобильные павильоны рассматриваются не только как средство стимулирования экономической активности, но и как неотъемлемый элемент городского ландшафта. Поэтому при их размещении необходимо комплексно учитывать архитектурно-планировочные, транспортно-логистические, социально-комфортные и экологически гармоничные факторы.

Abstract: This paper highlights the main principles of placing non-stationary (temporary) trade facilities throughout the city, stages of urban analysis, and ecological and aesthetic criteria. In the context of modern urbanization, trade pavilions, kiosks, and mobile pavilions are viewed not only as a means of promoting economic

activity but also as an integral element of the urban landscape. Therefore, their placement should comprehensively take into account architectural and planning aspects, transport and logistics conditions, social comfort, and ecological harmony.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning yirik shaharlarida — Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona kabi markazlarda savdo-xizmat sohasida nostatsionar obyektlar (vaqtinchalik savdo pavilonlari, kiosklar, modul tipidagi konstruktsiyalar)dan keng foydalanilmoqda. Ular asosan piyodalar oqimi yuqori bo‘lgan joylarda, transport bekatlarida, yirik savdo markazlari atrofida, jamoat maydonlarida, xiyobonlar va rekreatsion hududlarda tashkil etilmoqda.

Bunday obyektlar aholiga qulaylik yaratish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, shahar iqtisodiyotini jonlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ular shahar landshafti, vizual kompozitsiya va ekologik muvozanatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, amaliyotda ko‘plab holatlarda bu obyektlar tasodifiy joylashtirilgan, shahar bosh rejasida aks etmagan yoki faqat iqtisodiy manfaat nuqtayi nazaridan o‘rnatilgan bo‘lib, natijada shahar ko‘rinishining yaxlitligi buzilgan, piyoda va transport oqimi tartibsiz holatga kelgan.

Shuning uchun nostatsionar obyektlarni joylashtirish masalasini faqat tijoriy yoki vaqtinchalik yechim sifatida emas, balki urbanistik tahlil, arxitektura dizayni va ekologik rejalashtirish bilan bog‘liq kompleks ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqish zarur. Bunda shahar infratuzilmasi, transport tizimi, ijtimoiy infratuzilma, estetik tamoyillar hamda atrof-muhit bilan uyg‘unlik muhim o‘rin tutadi.

1. Joylashtirishning urbanistik asoslari

Nostatsionar obyektlarni joylashtirishda urbanistik yondashuvlar asosiy rol o‘ynaydi. Ularning maqsadi — shahar muhitidagi funksional va estetik uyg‘unlikni ta’minlashdir. Shahar bo‘ylab nostatsionar obyektlarni rejalashtirishda quyidagi urbanistik mezonlar asosiy yo‘nalish sifatida belgilanadi:

- Transport va piyodalar oqimi tahlili. Obyektlar eng ko‘p harakatlanish sodir bo‘ladigan nuqtalarda joylashtirilishi kerak. Piyodalar yo‘laklari, metro va avtobus bekatlari, yirik ofis binolari hamda turistik yo‘nalishlar yaqinidagi hududlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, harakat oqimiga to‘sqinlik qilmaslik, xavfsiz o‘tish zonalarini saqlash zarur.
- Funktsional zonalash. Shahar hududi faoliyat turlari bo‘yicha zonalarga bo‘linadi — turar joy,

xizmat ko‘rsatish, sanoat, rekreatsion va madaniy zonalar. Nostatsionar obyektlar bu zonalar bilan funksional jihatdan mos joylarda tashkil etilishi lozim. Masalan, dam olish parklarida yengil oziq-ovqat kiosklari, ofis hududlarida kofe pavilyonlari, turistik joylarda suvenir do‘konchalari.

- Vizual kompozitsiya.
  Har bir nostatsionar obyekt shahar ko‘rinishining estetik qismiga aylanishi kerak. Bu — shakl, rang, material va joylashuv muvozanatini saqlashni anglatadi. Arxitektura kompozitsiyasi vizual yuklamani oshirmasligi, balki mavjud binolar bilan ritmik uyg‘unlikda bo‘lishi zarur.
- Ekologik tahlil.
  Joy tanlashda shamol yo‘nalishlari, quyosh nuri tushish darajasi, yashil hududlar yaqinligi, suv resurslari holati inobatga olinadi. Bu ekologik tahlil obyektning tabiiy sharoitlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi.
- Tarixiy-madaniy moslik.
  Tarixiy markazlar va me’moriy yodgorliklar atrofida joylashgan obyektlar madaniy muhitni buzmasligi kerak. Masalan, Buxoro yoki Samarqand markazidagi nostatsionar pavilyonlar mahalliy arxitektura uslublariga mos shaklda — gumbazli, yog‘och yoki g‘isht fakturalarida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu mezonlarning majmuasi shahar bo‘ylab nostatsionar obyektlarni joylashtirishda tizimli rejalashtirish modelini shakllantirish imkonini beradi.

2. Tahlil bosqichlari

Joylashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish bir necha bosqichli tahlil jarayonini talab etadi.

- Hududiy tahlil.
  Mavjud savdo nuqtalari, jamoat joylari, piyoda yo‘laklari, transport liniyalari va yashil hududlar xaritada aniqlanadi.
- Demografik tahlil.
  Har bir tuman yoki hududda aholining zichligi, yosh tarkibi, kundalik harakatlanish yo‘nalishlari (uy–ish–dam olish) aniqlanadi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil.
  Savdo xizmatlariga bo‘lgan talab, tovar aylanish hajmi, aholining to‘lov qobiliyati, turizm oqimi baholanadi.
- Ekologik baholash.
  Joyning tabiiy sharoitlari — havo sifati, shovqin darajasi, yashil hududlar bilan masofa, chiqindi yig‘ish tizimining mavjudligi baholanadi.
- Estetik integratsiya.
  Yangi obyektlar mavjud arxitektura bilan rang, shakl, hajm va material jihatdan uyg‘unlashtiriladi.

Natijada tahlil asosida nostatsionar obyektlarni joylashtirish uchun optimal nuqtalar kartasi ishlab chiqiladi, bu esa shahar bosh rejasiga integratsiya qilinadi.

3. Amaliy yondashuvlar va dizayn tamoyillari

Zamonaviy amaliyotda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi: klaster prinsipi, lineer tizim, dispers tizim va tematik dizayn. Dizayn jihatidan nostatsionar obyektlarda yengil metall karkaslar, kompozit panellar, yog‘och elementlar va shaffof oynavand fasadlar keng qo‘llanilmoqda.

4. Ekologik va estetik muvozanat

Joylashtirishda ekologik yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi: energiya tejamkor texnologiyalar, tabiiy shamollatish va yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish, vizual tozalikka va yashil hudud bilan uyg‘unlikka e’tibor. Bu chora-tadbirlar orqali nostatsionar obyektlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlik tamoyillariga ham javob beradi.

Xulosa:

Nostatsionar savdo obyektlarini shahar bo‘ylab joylashtirish shunchaki iqtisodiy zarurat emas, balki urbanistik muvozanat va shahar estetikasi ni ta’minlovchi kompleks jarayondir. Samarali joylashtirish uchun transport va piyoda oqimlari bilan uyg‘unlik, ekologik sharoitlar, tarixiy-madaniy muhitga mos dizayn, estetik yaxlitlik va shahar bosh rejasiga integratsiyalangan tartib muhimdir. Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan tizim O‘zbekiston shaharlarida zamonaviy, ekologik barqaror va qulay urban muhitni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Beknazarov, A. (2021). Shahar muhitida kichik arxitektura formalarini loyihalashda kompozitsion yechimlar. Toshkent: TAQI.
2. Juraev, F. X. (2020). Arxitektura va dizaynda ekologik tamoyillar. Toshkent: “Fan va Texnologiya” nashriyoti.
3. Boboev, S., va Rahmonov, I. (2022). Modulli konstruksiyalar asosida vaqtinchalik savdo inshootlarini yaratish masalalari. “Me’morchilik va Qurilish” jurnali, №3, 45–52-betlar.
4. UN-Habitat (2022). Guidelines for Sustainable Urban Design and Temporary Installations. Nairobi.
5. Smith, J. (2021). Temporary Urban Architecture: Design and Adaptation. London: Routledge.